

DUNYONING ISHLARI INGLIZ TILIDA**Marxabo Raxmonkulovna Abdullayeva***PhD, Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti***Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari (Such as Life)" asarining Mark Ris tomonidan qilingan tarjimasini tahlilga tortilgan. Tarjima, bir qarashda, oddiy ish jarayoniga o'xshasa-da, asar boshqa tilda qayta yaratilgan ekan, tarjimon ijodiy vazifa bilan band bo'lib, muallif singari har bir so'z, birikma, jumlaning ishonchli bo'lishi uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Agar u so'z zamiridagi muallif ko'rgan narsani ko'rmas, u his qilgan narsani tuymas ekan, tarjimada so'z qanchalik maqbul tanlangan bo'lmasin, ma'no anglashilmay qolaveradi. Chunki tarjimadagi so'z har jihatdan asliyat so'ziga monand bo'lish bilan birga voqelikka zid bo'lmasligi kerak.

Kalit so'zlar: *Dunyoning ishlari (Such as Life), bevosita tarjima, milliylik, shakl va mazmun birligi, supa, rayhon, tillaqosh, diydor, surp yaktak, fotiha.*

Kirish qismi: Mustaqil O'zbekistonning umumjahon hamjamiyatiga integratsiyalashishi uchun milliy adabiyot namunalarining ingliz tiliga tarjima qilinishi va ularning dunyo xalqlari e'tiboriga havola etilishida muhim islohotlarni amalga oshirishga e'tibor kuchaymoqda. Ayniqsa, adabiyotshunos va tilshunos olimlar oldiga nasriy asarlarni zamonaviy adabiyotshunoslikning yangi yo'nalishlari vositasida davr ijtimoiy-madaniy munosabatlari bilan bog'liq holatda o'rganish, jahon tillariga tarjima qilish, o'zbek xalqi madaniyatini tarannum etgan romanlarni dunyo xalqlari o'rtasida keng targ'ib etish kabi muhim vazifalarni qo'yadi. Adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifati hamda ko'lamini oshirishda "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga va o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish chora-tadbirlari dasturi" dasturilamal vazifasini bajarmoqda. Shu sababli O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" asarining ingliz tiliga tarjimalarini qiyosiy tadqiq etish, tarjimada milliylikning ifodalanishi, tarjimaning haqqoniyligini ilmiy baholash, tarjima asarda tarixiy-milliy manzarani qaytadan yaratish, shuningdek, mazkur muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarbdir.

"Dunyoning ishlari" - O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub memuar qissa bo'lib asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to'liq tarzda 2005-yilda "Sharq nashriyoti" tomonidan nashr etilgan. Jumladan 2015-yilda Yangi asr avlodi nashriyoti tomonidan 336 betli qattiq muqovada nashr etildi. Shu yili Meriyus nashriyoti tomonidan 272 betda, 3000 nusxali

qattiq muqovada nashr etildi. Ushbu nashrning ustki qismida qishloq ko'chasidagi uylar va adibning onasi tasvirlangan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday tariflagan: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rnini va uslubiga ega bo'lgan adib. Uning asarlari oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Dunyoning ishlari asari ham ana shunday xalqchil asarlar sirasiga kiradi. Asar 2024-yilda tarjimon Mark Ris tomonidan ingliz tiliga o'girilgan.

Jonli va hayotiy tasvirlar, o'zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar mutolaa ta'sirini kuchaytiradi. Asar adibning bolalik davridagi voqealari asosida qurilgan. Sovet davridagi oddiy qishloq oilalari, odamlar turmush tarzi adibning onasi bilan uyg'unlashtirib tasvirlangan. O'tkir Hoshimov shu kichik asarida ham dunyoning ishlarini mujassamlashtirgan.

Asosiy qism: Jonli va hayotiy tasvirlar, sof o'zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar mutolaa o'quvchini o'z ta'siriga oladi. Nafaqat millat, balki chin insoniylik tarannumi yozuvchi asarlarida yetakchilik qilishi kitobxon uchun tarbiyaviy va hayotiy saboq boladi. Xoh jiddiy, xoh hajviy bolsin O'tkir Hoshimov asarlarida hayot qaynaydi: unda har birimiz o'zimizni, oilamizni, do'st-u yorimizni, hatto hech kimga o'xshamagan onamizni ko'ramiz... Bir inson umrini qamragan roman bolsin, qator novellalardan iborat qissa yoki hikoya bolsin, janridan qat'iy nazar, Otkir Hoshimov asarlarida dunyoning ishlari mujassam. Mutolaa har qanday o'quvchi uchun katta hayotiy xulosa berishiga ishonamiz.

Ma'lumki, har bir xalq madaniyatida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular madaniyatlararo tafovutlarni, ya'ni farqli jihatlarni namoyon etadi hamda tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchiliklar tug'diradi. Yozuvching "Dunyoning ishlari" qissasi oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turgani bois xorijiy tillarga, shu jumladan, ingliz tiliga ham o'girilgan.

Qissaning Mark Riz tomonidan bevosita o'zbek tilidan tarjima qilingan inglizcha variantini asar asliyatini bilan qiyoslab, o'girmada milliylikning ifodalanishini kuzatamiz:

Asliyatda: ... Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko'loplatip suv separ, kun bo'yi oftobda qizigan er hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib, ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi.

Tarjimada: *There was supa under that almond tree. As soon as the sun sat down my mother used to water the yard, the smell of the land which had been heated during*

the whole day by the sun gave out a scent with basil, by that bench and everywhere would get silent then .

Asliyat matnida keltirilgan supa etnografizmining ingliz tilida supa tarzida transliteratsiya qilinishi, rayhon o'simligining basil deb tarjima qilinishi orqali, milliy-madaniy xususiyat kasb etgan so'zlarni tarjimada berishning ikki xil usulini kuzatamiz. Shuningdek, tarjimada ko'loplatib aniqlovchisi tushurib qoldirilib, asliyatdagi bo'rttirib ko'rsatilgan ko'p miqdorda suv sepish jarayoni, shunchaki water so'zi yordamida ingliz tiliga o'girilishi ekspressivlikning susayishiga olib kelgan.

Tarjimada: *The moon used to stop sailing as if it wanted to listen to this enchants again, stars glanced with sad eyes, and mother used to tell fairy-tales.* Muallif asliyat matnida oymoma va yulduzlarni jonlantirib, bolalarcha erkalangani, o'ychan ko'zlarini muloyim tikib turganini ta'sirli ifodalaydi. Kitobxon ko'z o'ngida bolakay yuzi gavdalanadi. Xuddi mana shunday jonlantirish badiiy tasvir ifodasi ingliz tili o'girmasida ham kuzatiladi. Biroq o'ychan ko'zlarni sad eyes, ya'ni g'amgin ko'zlar, deb tarjima qilinishi natijasida yulduzning g'amgin ko'rinishi gavdalanadi. Aslida esa oymomaning ona qo'shig'idan bolalarcha zavqlangani, yulduzlarning esa sokinligi anglashiladi. Shu o'rinda thoughtful eyes birikmasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lardi. Asliyat matnida keltirilgan yana bir parchaga e'tibor qaratamiz:

Asliyatda: *Ochil. Ochil. Oq toshlar-a, Men onamni ko'rayin-a, Diydoriga to'yayin-a .*

Tarjimada: *Open up; open up, dear white stones. Let me see my mother again. Let me be satisfied of her face*

Tarjima jarayonida shakl va mazmun birligi asar badiiyatini saqlashning muhim unsurlaridan biridir. Tarjimonning vazifasi esa Y.I.Resker ta'kidlaganidek, boshqa til vositasi orqali asliyatning stilistik va ekspressiv xususiyatlarini saqlagan holda uning mazmunini aniq va butunligicha tiklashdir . Tarjima butunligi deganda, olim tarjima tilida mazmun va shakl birligining saqlanishini nazarda tutadi. Yuqorida keltirilgan she'riy parchaning asliyatidagi a-a-a qofiyasi tarjima variantida a-b-a shaklida ifodalanganbo'lib, birinchi va uchinchi misralar qofiyadorligiga erishilgan, ammo mazmundan yiroqlashilgan.

Asliyatdagi diydor so'zi biron narsa yoki kishi husnidan to'yib-to'yib zavq olish manosini beradi. Xuddi shu diydoringga to'yayin-a birikmasi ingliz tiliga be satisfied of birikmasi orqali o'girilgan. Satisfy leksemasi qoniqmoq ma'nosini ifodalaydi. Biroq Kembridj izohli lug'atida satisfied of – to make someone believe that something is true, ya'ni biror bir narsaning haqqoniyligiga birovni ishontirish, deb izohlangan. Ko'rinish turibdiki, mazkur ma'no diydorga to'ymoq ma'nosini ifodalaydi. Odatda, uzoq muddat ko'rishmaganlar, ayniqsa, onalar farzandlarini biror erga jo'natish oldidan yoki aksincha, uzoq safardan qaytganida uning diydoriga to'yib olgisi, sog'inchini shu orqali ifoda etgisi keladi. Bu o'rinda diydor sog'inchini, qo'msashni ifodalovchi ingliz

tilidagi miss soʻziga ekvivalent boʻlishi mumkin. Chunki miss – to feel sad that a person or thing is not present degan maʼnoni anglatadi. Yuqorida keltirilgan qoʻshiqdan qizaloq onasini juda ham sogʻingani va uning diydoriga toʻyishni istagani talqin qilinadi. Hozirgi kunda badiiy tarjimaga oid koʻplab manbalarda badiiy asar mazmun-mohiyatini etkazib berish muhimligi taʼkidlanib kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda keltirilgan sheʼriy parchani quyidagicha tarjima qilish mumkin:

Open up, open up, open white stones, Let my mother's face be seen, I have missed that so much .

Oʻzbek xalqi azaldan bolajon xalq boʻlgani bois, farzandni ulugʻ neʼmat hisoblashadi. Mahallakuy har bir bola tarbiyasiga birdek masʼul boʻlib, mehr-muruvvat koʻrsatishadi. Ikkinchi jahon urushi vaqtlarida ham eng koʻp etim bolalarni asrab olib, oʻz bolalaridek mehribonchilik qilishgan. Xalqning eʼtiqodiga koʻra etim bolani boshini silash savob hisoblangan. Quyidagi parchada ham etim bolalar haqida soʻz yuritilgan.

Asliyatda: Koʻrdingmi, yaxshi oʻsmay qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak.

Tarjimada: *You see, it is smaller than others, we must take care of orphans .* Asliyatda keltirilgan rahm qilmoq feʼli insoniylikni ifodalab, ingliz tilida to look after someone or something, birovga gʻamxoʻrlik qilish maʼnosini anglatuvchi take care of frazeologik birligi ekvivalent sifatida tanlangan. Asliyat va tarjima variantida berilgan rahm qilmoq va take care of davlatimiz bosh siyosatiga koʻtarilgan yosh avlodni tarbiyalash gʻoyasi bilan hamohang, chunki bu orqali yoshlarda insonparvarlik tuygʻusi shakllanadi.

Asliyatda: Gazetachining ishi bir tomondan uloqchi otga, ikkinchi tomondan omoch tortadigan otga oʻxshaydi. Uloqchi otdek manzilga yuguradi-yu, er haydaydigan otdek har kuni omoch tortadi.. .

Tarjimada: *The work of the newspaper editor resembles to two horses: horse in the uloq and horse of plough. He runs to the address like a horse in uloq and ploughs land like a horse of plough...*

Asliyatda taʼkidlangan gazetachi uloqchi otga oʻxshatilib, hamma ishni doim chaqqonlik bilan bajarishini anglatasa, omoch otga mengzalishi uning mehnati ogʻirligini bildiradi. Uloqchi ot tarjimada a horse in uloq singari ifodalanib, uloq soʻzi transliteratsiya qilingan. Milliylikni ifodalovchi yana shunday bir misolni koʻrib chiqamiz. Asliyatda: Oyim kun chiqmasdan turib yoʻlaklarni supurardi. Biz aka-ukalar suv sepamiz .

Tarjimada: *Mother would sweep the passages in early dawn. We, brothers watered the street .* Oʻzbek xalqida erta sahardan turib, hovlini, yoʻlaklarni supurib, suv sepish odat tusiga kirib qolgan va bu bilan xonadonga fayzu baraka kirishiga ishonishgan lgan va bu bilan xonadonga fayzu baraka kirishiga ishonishgan.

Xulosa qismi: Har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlari, milliyligini namoyon etuvchi qadriyatlari, an'analari mavjud. Bunday milliylikka yo'g'rilgan asarlarni o'zga tilga o'girish tarjimondan katta mahorat talab etadi. Tarjimon tilni bilishdan tashqari shu xalq madaniyati bilan yaqindan tanishgan bo'lishi lozim. Umuman olganda, bir tildan o'zga tilga o'girilgan asarlar orqali madaniyatlararo aloqalar mustahkamlanadi, bir-biriga yaqin bo'lmagan xalqlar yaqinlashib, do'stlik rishtalari bo'g'lanadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar / Otkir Hoshimov. - T.: Yangi asr avlodi, 2015. - 336 b.
2. Mark Reese, Abdullajon Ruziev "Such is Life". Nashville, TN. 2024.- 253p.
3. Xayrulla Hamidov, & Marxabo Abdullayeva. (2024). Frazologizmlarning o'zbekcha muqobil variantlari va funksional xususiyatlari. *Konferensiyalar | Conferences*, 1(8), 14–21.
4. Hamidov, X., & Abdullayeva, M. (2024). Alternative Versions and Functional Characteristics of Phraseologists in Uzbek. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 51–54. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2637>
5. Abdullayeva M. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari (Agata Kristi asarlarining o'zbekcha tarjimalari misolida) (Monografiya). T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2024;148.
6. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: ИМО, 1974. – 254 с.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. I.A –Д / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. –Ж.V. Шукрона – Ҳ / 591б.
8. Hoshimov O'tkir. Affairs of Life. Stories. – Tashkent, 2013. –p.165.
9. Said A. Ijod va jasorat. / Hoshimov O. Tanlangan asarlar. 1-jild. –Toshkent: Sharq, 2009. – B.
10. Qodirovna T. Z. Scientific and Theoretical Study of “Baburname” and Its ‘translations into the World Languages //Journal of Critical Reviews. – 2019. – T. 7. – №. 3. – C. 2020.
11. MAKHUDOVA D. K., SULTANOVA F. F. Q. ADVANTAGES OF LEGAL BASIS OF ACTIVITY OF NATIONAL CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN. – 2024.
12. Abdullayeva, M. (2024). Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari (Monografiya). T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 148.
13. LAFASOV, U. P., & ABDULLAYEVA, M. R. (2024). ABDULLA QODIRIY ROMANLARIDAGI JONLANTIRISH VA TASHXIS TASVIR USULLARI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 39(3), 65-70.